

**BADIIY ASARDA TABIAT, HAYVON, O'SIMLIK KABI EPIZODLAMING
QO'LLANILISHI****To'lqunov Bunyodbek****University of Business and Science****O'zbek tili va adabiyoti K.O'Z-23-01-guruh talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14185392>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada, badiiy asarning chuqur ma'no mohiyatini yoritib beruvchi, badiiy adabiyotning azaliy qudratini anglatuvchi obrazlar haqida. Badiiy asarda tabiat, hayvon, o'simlik kabi obrazlarning qo'llanish mohiyati.

Kalit so'zlar. Qushlar, daraxtlar, zilol suvlar, tabiat, mohiyat, estetika, etka, badiiylik, inson, qadryat.

Аннотация: данная статья посвящена образам, освещающим смысл произведения искусства и олицетворяющим древнюю силу вымысла. Сущность использования в художественном произведении таких образов, как природа, животные, растения.

Ключевые слова. Птицы, деревья, чистая вода, природа, сущность, эстетика, этика, артистизм, человеческое достоинство.

Annotation: this article is about the images that illuminate the meaning of the work of art and represent the ancient power of fiction. The essence of the use of images such as nature, animals, plants in the work of art.

Key words. Birds, trees, clear waters, nature, essence, aesthetics, ethics, artistry, human dignity.

Badiiy asarda tabiat, hayvon, o'simlik kabi epizodlarni qo'llanilishi insonlarni kitob o'qishga undovchi eng yirik va eng aniq bo'lgan dalil bu - to'g'ri fikrlash, ma'naviy ozuqalanish, komillikka sari erishmoqlikdir. ilmiy asarlar insonni tezkor va serma'no fikr yuritishga yordam bersa, badiiy asarlar - insonning ichki va tashqi muhitida ro'y berayotgan voqea - hodisalarga bevosita o'zgacha nazar va fikr bilan javob ko'rsatishga undaydi.

Badiiy asarning mazmun - mohiyatini asar yozish uchun asos qilib olingan manbalarni obrazlar orqali tasvirlanadi desak mubolaga bo'lmaydi Har bir obrazda o'ziga hos uyg'unlik bo'ladi. Xalqlarni ichki kechinmalari qolaversa, yozuvchining o'z kechinmalarini ham asar qahramonlari yordamida obrazlashtiradi. Har bir badiiy asarda, tabiat, hayvon o'simliklar kabi epizodlar mavjud. Bu esa badiiy asarning jozibador, sermazmun, etika, estetika jihatdan yorqin, o'quguvchi uchun manzur kelishini ta'minlaydi. Kitobxon badiiy asar o'qiyotgan paytda - tabiat obrazi aks etgan qismini o'qisa bevosita ruhiy ozuqa, yangi fikr uchun go'zallik qo'shuvchi asosni, o'ziga oladi. Misol tariqasida Alisher Navoiyning "Lison- ut- tayr" (qush tili) asarida ko'rishimiz mumkin. Bu asarda asosan qushlar obrazi qo'llanadi. Navoiy bu asarida, o'sha davrning insonlari qolaversa insoniyatning holatini qushlar yordamida yoritadi. Asarda, o'rmonda ko'p qushlar yashaydilar, ular o'zliklarini bilmaganlari sababli g'ola - g'ovur ko'tarishadi. Shunda bir qush ularga, eng oliy qush yoniga borishni, qushlar podshohi bo'lgan bir qush borligini aytadi. Va uni "Simurg" deb ataydi. Qushlar bu gapni eshitgan " Hudhud " nomli qushga ergashib " Simurg' " tomon yo'l olishadi. Yo'lda juda ko'p azobu dardlarga duchor bo'ladilar. Qushlar o'z uzrlarini aytishadi. Hudhud ularga kerakli javobni aytib, yo'lida davom etishlarini so'raydi.

Bulbul uzri: (qisqacha)

Men bir hushovoz qushman. Men bog' aro kezaman, men gullarga oshiqman. Menga bundan boshqa yana nima kerak bo'lishi mumkin. Hudhud javobi (qisqacha)

Ey nodon qush! Sen o'zingni soxta ishqingni ishq dema. Sening gaping yolg'ondan boshqa narsa emas. Agar - sen sevgan guldan bir ozor yetsa, sevgan chamaning ham hazonga aylanadi. [1.19-B] Shu tariqa 30 ta qush Hudhud aytgan joyga yetib borishadi. Va Simurg' ya'ni 30 qush degani holda o'zliklariga yetishadi.

Bunday asarlar kitobxonni chuqur fikrlashga, o'zlikni anglashga ordam beruvchi manbaadir. XIX asr oxiri XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda yashab ijod etgan Abdulla Qodiriy romanlarida o'ziga xos obrazlarini ko'rishimiz mumkin. Uning ko'pchilikka ma'lum bo'lgan "O'tgan kunlar" romanida berilgan parchani ko'raylik:

"Ko'zlaridan oqqan marvarid tomchilarini shu sirlik ariq suvi bilan yuvdi, bir martabagina emas qayta - qaytalab yuvdi", "Kumushning dardini hech kim bilmas, uning hayoliga hech kim tushunmas, magar shu ariq bo'yi tushungandek, bilgandek... Sirli ariq bo'yi unga nimalarnidir so'zlar, undan nimalarnidir tinglardi ". [2.54-B] Kumushga dalda berayotgandek tuyulgan ariq bo'yi Kumushga xush kelardi. Kumush bilan Otabekni uchrashtirgan ham shu ariq bo'yi, sirli suv sababchi emasmidi...

Darhaqiqat, badiiy asarlarda, qolaversa xalq og'zaki ijodida ham bunday epizodlarni obrazlashtirishga bolgan yondashuv azaliy qadriyat bo'lib qolgan. Yokida, Ezopning masallarida hayvonlar obrazi aks etgan bo'lsada, negizida insonning ruhiyati, va insoniyat uchun muhim bo'lgan muammolarni tasvirlaydi. Har bir masalda, o'zgacha ruhiyat, o'zgacha ma'no mazmun, bor desak mubolag'a bo'lmaydi. XX-asrning so'ngi yillarida yaratilgan asar "Muvozanat" romani Ulug'bek Hamdam qalamiga mansub bo'lib, bu asarda ham insonlarning sodda fikrlashlari oddiygina hayot tarzi keltirilgan. Ushbu asarda ham turli hayvon-u, qushlar obrazlashtiriladi. Asosiy maqsad epizod tanlash emas, asosiy maqsad tanlangan epizodni hayotdagi qaysidir kamchiliklarni ko'rsatish uchun tanlashdir. Bu asar ham huddi shu yo'sinda yozilgan. Asardagi Muhammadjon ismli akaning katta bir bog'i bor edi va ana shu bog'da bedana va sayroqi qushlari bor edi. Muhammadjon aka ko'p yillar ularni parvarish qildi. Yillar o'tib Muhammadjon aka, qadrdon bog'i va qushlari bilan birma-bir suhbat qurdi. Muhammadjon akaning yolg'iz do'stlari shu daraxtlar, qushlar edi. Bir kuni "Muhammadjon aka qushlar qafasidan bir qushni oldi. Kaklik... Chiroyli qush ... Kaklikni boshidan o'pib, bor qushcha uchaqol, ozod bo'l, tog'u rog'larga bor. Bu yerlarda bog'lar ham qolmadi, tog'lar ham. Hammasini yakson qilib paxtazorga aylantirishdi bular! Uchaqol deyaa qo'yib yubordi. Qush bir muddat nima bo'lganini bilmagandek o'zini muallaq tashlab qo'ydi. Va ozod bo'lganini sezgandek pir - pir etib uchib ketdi. Muhammadjon aka qayerga ketganini bilaolmadi. Chunki tobora ko'tarilib kelayotgan quyosh nurlari uning ko'zlarini qamashtirib yuborgandi. [3.34-B]

Badiiy asarlarda bundayin obrazlarni qo'llash yozuvchining mahoratiga bog'liqdir. Yozuvchi shunday obrazlar orqali ma'lurn hissiyotni paydo qiladi. Va Kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Badiiy asarga go'zallik va nafislik olib keladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan ko'rinadiki asar nihoyatda nafis, mazmunan mukammal bo'lishini ta'minlashga albatta ana shundayin hayvonlar, qushlar, tabiat obrazlari juda muhim ro'l o'ynaydi. G'arb adabiyoti olamida ham shu kabi epizodlarni ko'rishimiz mumkin. Ulardan biri Ingliz yozuvchisi Jorj Oruel. Uning "Molxona" nomli asari asosan hayvonlar obrazi orqali insonlarning qabih ishlarini ko'rsatib beradi. Bu asarda "qo'rgoncha" nomli molxonada turli xildagi hayvonlar yashashadi. Ularni Jons ismli odam boqar edi. Bir kuni barcha hayvonlar to'planib majlis otkazishadi va ular bunday go'yoki tutqunlikda

yashayolmaymiz deganday isyon qilish rejasini tuzishadi. Va hayvonlar sardori keksa mayor cho'chqa "Midluaytlik" barcha hayvonlarga boshchilik qilishini ta'kidlaydi va aytadiki: "Ikki oyoqda yuradigan har bir jon - ganim, to'rt oyogi yoki qanoti bor har bir jon - do'st" [4.8-B]deydi. Va ular ozodlik uchun kurashishadi. Insonlar qiladigan ishlarni ya'ni pichan o'rish, qishga ozuqa yigish kabi ishlarni o'zlari amalga oshirishadi. Biz jonivorlar hech bir birodarlarimizga ozor bermaymiz degan g'oyaga amal qilishadi. Biroq kunlar otishi bilan bu inoq jamoa bir-biridan manmanlik sabab nafratlanish holatiga otishgan edi. Shu tariqa hayvonlarga boshchilik qilayotgan cho'chqalar kibr yo'lga o'tib qolishadi. Huddi odamlardek otlarga qamchin bilan boshqalariga boshqacha tajovuz bilan muomala qilishadi. Asar yakuniga qadar esa hayvonlar huddi odamlardek bo'lib ketishadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, odamlar va jonivorlar o'rtasida tafovut bo'lsada mehr tushunchasi, ittifoqlik tushunchasi nuqtai nazaridan bir ekanliklari aytiladi. Ya'ni odamlar odamlarga va ongli bo'lganliklari uchun hayvonlarga ozor bermaslik, jonivorlar jonivorlarga mehrli bo'lish kerakligini anglatadi. Balki ushbu asardan yana bir xulosa qilishimiz mumkinki, odamlarning turli hildagi yomon hatti-harakatlari hayvonlar timsolida namoyon bo'ldi. Ohir - oqibat hayvonlar ham o'z nafslari sabab birodarlarimiz degan hayvonlarga tajovuz o'tkazishdi.

Xulosa. Badiiy asarning estetik jihatdan sog'lomligi uning obrazlarida namoyon bo'ladi. Yozuvchi obrazlarga ma'suliyat ila yondoshgan holda, ta'rif berishi lozim. Aks holda, bu asar, inson ya'ni o'quguvchi ruhiyatini muvozanatdan chiqarib yuborishiga sabab bo'ladi. Maqolada yoritib o'tilgan obrazlar mohiyati esa, yozuvchining badiiy mahoratidir. Bunday obrazlarning noto'g'ri talqin qilinishi o'quguvchi uchun, qolaversa badiiy asar o'qishni boshlagan insonlar uchun salbiy oqibatlariga olib kelishini unutmashimiz lozim. Hozirgi kunda ham badiiy asar ixlosmandlari, Alisher Navoiyning falsafiy tafakkuriga, va asarlarining oradan necha asr o'tgan bo'lsada, mohiyatini yo'qotmaganligiga qoyil qolishadi. O'zbekiston xalqining o'zi bir adiblardir. Asarni juda sermazmun va mukammal tarzda yaratish ularning qo'lidan keladi. Badiiy asarning qadr qimmatini, avvalo uning obrazlilikidir.

References:

1. Lison - ut tayr (qush tili) Muallif : A isher Navoiy. Manba: Vahob Rahmonov tahrir hay'ati, www. Ziyoz.uz com kutubxona.
2. O'tkan kunlar romani. Muallif: Abdulla Qodiriy. Al N_170.23 12 9009 Navro'z 2019
3. Muvozanat romani. Muallif: Ulug'bek Hamdam. Al N.252, 2014 yil." Vangi asr avlodi" HMM da tayyorlandi. " Yoshlar matbuoti " MCHJ da chop etildi. e-mail: yangiasravlodi@mail.ru
4. Molxona asari. Muallif: Jorj Oruell. Tarjimon: Karim Bahriyev. Bosh muharrir: M.A.Nurmuhammedova. Tasdiqnoma N_e5295, sanasi: 23.01.2021 "Ofsent print" MCHJ bosmaxoncibida bosildi. Toshkent: NIHOL 2023.-100 b.